

TONG Yulduzi

№23 (66356)
2002 yil
3 iyun,
dushanba
Sotuvda
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqqan boshlagan.

Inson umri uning el-yurtga qilgan xizmatlari, farzandlarining barkamolligi bilan o'lchanadi. 35 yillik umrini yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga bag'ishlagan aziz va mehribon inson Zaynab opa Axtamovaning nomini umrini faqat ezguliklarga bag'ishlayotgan insonlar qatorida tilga plamiz. Zaynab opa o'n nafar farzandning mehribon onasi, 32 nabiraning shirinso'z buvijonisidir. Barcha qizlari ona izidan ketishdi. O'g'illarining birlari muhandis, yana biri tadbirkor. Bir so'z bilan aytganda hammalari yurt obodligi uchun mehnat qilishyapti...

Biz onaxonni har doimgidek nabiralari davrasida uchratdik:

-Mana, o'qishlar ham tugadi. Endi ta'tilni mazza qilib buvijonimiznikida o'tkazamiz, -deydi nabiralari Ibrohimjon va Ismoiljonlar xursand bo'lib.

Ha, haqiqatan ham onaxonning uylari oromgohdan hecham qolishmas ekan. Xushmanzara, bahavo. Uylarining

topishmoqlar aytishni, xalq qo'shiqlari xirgoyi qilishni, har xil o'yinlar o'ylab topishni juda yaxshi ko'rarkanlar. O'zlari yaxshigina chevar bo'lganlari bois, qiz nabiralari o'yinchoqlar

«TARBIYACHI» BUVIJON



yasash, har xil kiyimchalar tikishni ham bajonidil o'rgatadilar. Eng muhimi, ularga axloqu odobdan, muomala madaniyatidan saboq beradilar. Axir, «Qari bilganni, pari bilmaydi» deb bejiz aytilmagan-ku...


Onaxon bilan xayrlashar ekanmiz, ularga astoydil havasimiz

keldi. Zaynab opadek qariganda qadr topgan onaxonu otaxonlarimiz bor bo'lsinlar!

Nodira MUHAMEDOVA.

oldidan oqib o'tadigan kattagina ariqni aytmaysizmi?! Bog'larida yo'q mevaning o'zi yo'q, hamma joy gulzor. Buvijon nabiralari bilan birgalikda ertak va

KITOB NIMAGA KERAK?




Bu savol dunyodagi eng mantiqsiz savol bo'lsa kerak. Hatto bog'cha tarbiyalanuvchilari ham bu savolga «o'qib-o'rganish, bilimimizni

ZIRAFCHA

berolmayman, boshqasini tanlay qolinglar, - dedi. Hayron bo'ldim.

Kitoblar soni bor-yo'g'i 200-300 tadan



boyitish uchun» deya to'g'ri javob beradilar. Qishlog'imiz kutubxonasiga kitoblar esa o'qish uchun emas, ko'rgazma uchun qo'yilgan.

Bir kuni singlim bilan kutubxonaga kirdik. Men o'qish uchun B.Ahmedovning «Tarixdan saboqlar» va G.A.Xidoyatovning «Mening jonajon tarixim» kitobini tanladim. Lekin kutubxonachi: - Bu ko'rgazma uchun qo'yilgan kitoblar. Ularni o'qishga

oshmaydigan kutubxonadan boshqa qanday kitob tanlash mumkin? Yaxshi, mazmunli kitoblar ko'rgazmaga qo'yilish uchun chiqsa, biz yoshlar nimani o'qiymiz? Bu gapga siz nima deysiz, aziz tengdoshlar?!

Xolida SALOHIDDINOVA,
Andijon viloyati,

Jalolquduq tumani, Beshtol qishlog'i.

Oromgohlar mavsumga shaymi?

Mavluda SHUKUROVA,
O'zbekiston kasaba uyushmalari
Federatsiyasi Kengashining bosh
mutaxassisi:

- An'anaga binoan yozgi
sog'lomlashtirish mavsumi Xalqaro
bolalarni himoya qilish kuni - 1 iyunda
Andijon, Namangan, Qashqadaryo
viloyatlarida tantanali ravishda ochildi.

O'tgan yili barcha oromgohlardagi
shart-sharoitlar, ibratli ishlar bilan bir
qatorda ayrim kamchiliklar ham
kuzatildi. Ayrim bolalar
sog'lomlashtirish oromgohlarida
tashkiliy va
tarbiyaviy
ishlar talab
darajasida bo'lmadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi,



Farg'ona, Sirdaryo, Toshkent
viloyatlari, Toshkent shahar
sog'lomlashtirish oromgohlarida
bolalarni ovqatlantirishni tashkil etishda
jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yildi.
Jizzax, Surxondaryo, Samarqand,
Buxoro viloyatlarining sport
sog'lomlashtirish hamda maktablar
qoshidagi kunduzgi oromgohlarida
ham ovqatlantirishga rioya etilmadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasidagi
«Jetkinshek», «Orol» oromgohlarida
tekshirish o'tkazilgan kun, ya'ni o'tgan
yilning 15 iyunida 100 bola o'rniga,
32 nafar bola dam olgani aniqlandi.

Ayrim oromgohlarda oromgoh
boshlig'i vazifasini bajarishda asosiy ish
joyi bilan qo'shib olib borish xolatlari
kuzatildi. Xorazm viloyatidagi «Bog'i
eram» oromgohi boshlig'i etib korxon
muxandis- mexanigi E.Z.Niyozov,

Bolajonlarimizning orziqib kutgan yozgi ta'tillari boshlandi. Bu mavsum o'z navbatida kasaba uyushma tashkilotlari uchun ham o'ta mas'uliyatli damdir.

Xo'sh, o'tgan yili bolalar oromgohlaridagi shart-sharoitlar ko'ngildagidek bo'ldimi? Bu yilgi mavsumga qanday tayyorgarlik ko'rildi? Oromgohlar bolalarni o'z bag'riga olishga shaymi?

Shu kabi savollar bilan O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiya Kengashining mas'ul xodimlarini suhbatga tortdik.

«Avtomobilchi» oromgohida esa
ma'lumoti bo'yicha tovarshunos
bo'lgan S.N. Rajabov tayinlangan.

xushmanzara oromgohlarida dam
oladilar.

Turli sabablarga ko'ra Respublika
bo'yicha 15 ta
oromgoh bu yil
f a o l i y a t
k o ' r s a t m a y d i .

KAMCHILIKLAR TAKRORLANMAYDI

Qoraqalpog'iston Respublikasidagi
«Start» oromgohidagi tibbiyot
shaxobchasi umuman
jihozlanmadi.

Xo'jayli tumanidagi
«Do'stlik» oromgohida
ovqat tayyorlash uchun
tabiiy gaz bo'lmagani,
tarbiyaviy- sport
ishlarini amalga
oshirish uchun zarur
asbob-anjomlar yo'qligi
kuzatildi.

Bu yil 747 ta bolalar
sog'lomlashtirish

oromgohlarining faoliyat ko'rsatishi
rejalashtirilgan. Shulardan 312 tasi
statsionar turidagi, 276 ta shahardan
tashqaridagi, 55 ta
sanatoriya tipidagi, 9
ta sport-
sog'lomlashtirish, 406
tasi maktablar
qoshidagi, 1 tasi
mehnat va dam olish
oromgohlaridir.
Ularda jami 270 ming
bola sog'lomlashtirish
rejalashtirilgan.
Ushbu maqsadlar
uchun 2 milliard 583
million 549 ming so'm sarflash ko'zda
tutilgan.


Har yilgidek bu yil ham Orol bo'yi
mintaqasidan 7 mingga yaqin
bolajonlar Toshkent viloyatining eng

O'tgan mavsumda yo'l qo'yilgan
kamchiliklar navbatdagi mavsumda
qaytarilmasligi, yozgi sog'lomlashtirish
mavsumini tashkiliy jihatdan
uyushqoqlik bilan o'tkazish maqsadida
mas'ul shaxslar bilan Respublika
o'quv-seminari o'tkazildi.
O'ylaymanki, seminardan har bir
ishtirokchi kerakli xulosani chiqardi.

ISTAGIMIZ - YAXSHI DAM OLING!

Fozil RO'ZIBEKOV, Toshkent shahar,
kasaba uyushmalari Kengashi raisining
o'rinbosari:

- Toshkent shahrida joylashgan
korxon va tashkilotlarda xizmat qiladigan
ota-onalarning farzandlari uchun bu yilgi



mavsumda 61 ta oromgoh ish boshlaydi.
Ularda 46,5 ming nafar maktab
o'quvchilari sog'lomlashtiriladi.
Shulardan 25 tasi maktablar qoshidagi
kunduzgi oromgohlar bo'lib, ularda 2500

nafar bolajonlar dam oladilar.

Shuningdek, bepul yo'llanmalar bilan 2,5 ming nafar qoraqalpog'istonlik bolalar, 500 nafar mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari, Mustaqillik bayrami ishtirokchilaridan 940 nafari ham dam oladilar. Imtiyozli yo'llanmalar bilan kasaba uyushmalari bolalar va o'smirlar sport maktablarining 500 nafar o'quvchilari ham sog'lomlashtiriladi.

Oromgohlarimiz o'z vaqtida ta'mirlandi, zarur asbob-anjomlar bilan ta'minlandi. Iste'mol suvi va kommunal foydalanish inshootlari yangilandi. Avtomobil yo'llari tiklandi, telefon aloqasi o'rnatildi.

Ayni kunlarda xalq ta'limi va sog'liqni saqlash bosh boshqarmalari, savdo departamenti oromgohlarga zarur bo'lgan malakali mutahassislarni tayyorlab bermoqda.

Oromgohlarga bolajonlarimizni avtobuslarda olib borish va qaytarib olib kelishda yo'l harakati havfsizligini ta'minlash choralari ko'rmqda.

Barcha oromgohlarimizda ko'plab tadbirlar uyushtirish rejalashtirilgan. Jumladan, Mustaqilligimizning 11 yilligiga bag'ishlangan tadbir, «O'zbekiston- Vatanim manim», «Siz qonunni bilasizmi?», «Oila va ma'naviyat», «O'zbekiston umumiy uyimiz» kabi mavzularda tadbir hamda spartakiadalar bo'ladi. Bu tadbirlar bolalarning yozgi ta'tillari yanada maroqli o'tishiga xizmat qiladi.


«ENG YAXSHI OROMGOH»

E'tibor RAHMONOVA, Toshkent viloyati, kasaba uyushmalar Kengashi madaniy, ma'rifiy va sport ishlari bo'limi mudiri:

- Bu yil Toshkent viloyati kasaba uyushmalarining shahar tashqarisida 18 ta oromgohlari ish boshlaydi. Ularda 16515 nafar bolajonlar dam oladilar. O'n ikkita oromgohimiz sanatoriya tipida. Unda bolajonlar o'z sog'liqlarini yana bir bor shifokor nazoratidan o'tkazishlari mumkin.

Viloyatdagi ayrim bolalar uchun ushbu oromgohlarga borish imkoni bo'lmasligi mumkin. Shularni inobatga olgan holda ayrim tumanlardagi 24 ta maktabda kunduzgi sog'lomlashtirish oromgohlari tashkillanadi.

Yaqinda Toshkent viloyati hokimligida bolalarni sog'lomlashtirish va dam oldirish bo'yicha yig'ilish bo'lib o'tdi. Yig'ilishda bu yilgi mavsumga tayyorgarlikning borishi haqida so'z bordi.



O'n sakkiz kun davomida bolalar ma'naviy ozuqa olishlari, sog'liqlarini yanada tiklashlari zarur. Buning uchun esa oromgohlarda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish, to'garaklarga jalb qilish, qiziqarli o'yinlar uyushtirish kerakligi aytiladi.

Kutubxonalarda lotin alifbosidagi bolalar adabiyotidan ko'proq bo'lishi lozim. Turli millat bolalari o'rtasida do'stlik rishtasini bog'lash, o'zbek tilida she'r, qo'shiq va sahna ko'rinishidagi chiqishlarda har bir bolaning faol ishtirok etishi lozimligi ta'kidlandi.

Yoz mavsumi davomida barcha oromgohlar doimo nazoratimizda bo'ladi. Ular o'rtasida «Eng yaxshi oromgoh» ko'rik tanlovi o'tkaziladi. Tanlov g'oliblari xomiy tashkilotlar hamda kasaba uyushmalari tomonidan rag'batlantiriladi.

Aziz o'quvchilar! «Eng yaxshi oromgoh» tanlovida g'olib bo'lish albatta sizlarning faolligingizga ham bog'liq. Oromgohlarda o'tgan har bir kuningiz maroqli, mazmunli va quvnoq bo'lsin.

Feruza SOYIBJON qizi.

Prezident asarlarini o'rganamiz

MILLIY ISTIQLOL G'OYASI: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

5. Markaziy Osiyo mintaqasidagi mafkuraviy jarayonlar

Hozirgi davrda Markaziy Osiyo siyosiy xaritasida ro'y bergan tub o'zgarishlar tufayli bu mintaqaga nisbatan geopolitik yondashuvlarning ifodasi bo'lgan mafkuraviy jarayonlar murakkablashib bormoqda.

Mustaqillikni qo'lga kiritgan va o'ziga xos taraqqiyot yo'lidan borayotgan mintaqada davlatlarida tarixiy xotira, milliy qadriyatlar va davlatchilik an'analarini tiklashdek muhim jarayon kechmoqda.

Jahondagi ma'lum bir siyosiy-mafkuraviy kuchlar ulkan iqtisodiy salohiyat va qulay geopolitik mavqega ega bo'lgan bu mintaqani o'z manfaatlari doirasiga tortishga intilmoqda. Ular o'z maqsadlariga erishish uchun ta'sir va bosim o'tkazishning barcha shakllarini qo'llamoqda.

Mintaqada tarixan shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy aloqalarni izdan chiqarish, do'st va birodar davlatlar, xalqlar va millatlar o'rtasiga nizo solish, keskinlik o'choqlarini keltirib chiqarish uchun turli g'oyaviy, diniy va mafkuraviy vositalar ishga solinmoqda.

O'rta asr xalifaligini qayta o'rnatish g'oyasi hamda xalqaro terrorchilik va diniy ekstremizm markazlari orqali moddiy-g'oyaviy jihatdan ta'minlanayotgan aqidaparast mafkuralar bugungi kunda mintaqamizdagi tinchlik va barqarorlik uchun katta xavf bo'lib turibdi.

(Davomi bor).

SIRA QO'LDAN QO'YMAIMAN

Yaqinda ayamning ayalari Samarqanddan biznikiga mehmonga keldilar. Biz juda suyunib ketdik. Buvijonim bizga mayiz, yong'oq va ko'plab shirinliklar olib keldilar. Oyijonimning qarshiliklariga qaramay, «o'z nafaqamdan» deb qo'llariga pul ham berdilar. Nevaramga biror narsa olib ber, unga nima kerakligini men bilmadim, dedilar. Oyijonim pulni qo'llariga olib, qizim endi buving baribir qo'yamaydilar, senga nima olib beray, deb so'radilar. Oyijon, mening hamma narsam yetarli, mumkin bo'lsa meni sevimli gazetam «Tong yulduzi»ga obuna qilsangiz, dedim. Buvijonim bahona men endi har hafta gazeta olib turaman. Gazeta uyimizga olam-olam yangiliklar bilan kirib keladi. Biz oilamiz bilan uning sahifalarini o'qib, suhbatlar uyushtiramiz. Gazeta bir hisobdan bizni yana ham jipslashtiradi. Gazetaning yangi sahifalarida yurtimizning eng iqtidorli bolalari, aziz va mehribon ustozlarimiz haqida, uzoq-uzoq qishloqlardagi yangiliklarni ko'proq yoritishlaringizni istardik.

MUNAVVAR,
Toshkent shahar,
Yunusobod tumanidagi
239 - maktabning
3 - sinf o'quvchisi.

Mana beshinchi sinfni a'lo baholar bilan tugallab, yozgi ta'tilga chiqdik. Biz bilan doimo birga bo'lgan jonkuyar, mehribon ustozimiz Mohira opa Boltayeva haqida qancha so'z aytsa oz. Biz bugun sevimli gazetamizga ikki og'iz rahmatnoma yozib yuboryapmiz. Bizning ustozimiz shu dargohda yigirma yildan ortiq vaqt mehnat qilib kelyaptilar. U kishi 1991 yilda «Katta o'qituvchi» unvoni bilan taqdirlangan. Mohira opa fan olimpiadalarida doimo qatnashib keladilar. U kishi bizlarga ingliz tilidan saboq berish bilan birga ikkita to'garakka rahbarlik ham qiladilar. Bizning sinfimiz - iqtidorli sinf

XATLAR TEGIRMONI

hisoblanib, barcha yaxshi ishlar boshida Mohira Bugun esa opamiz bizni yana ham quvontirdilar. Bu yoz biz

BIZNING MOHIRA OPA

opamiz bosh bo'lib keladilar. ta'tilni maktab oromgohida

**«ZAKOVAT» BELLASHUVI**

Bizning maktabda o'quvchilarning bilim salohiyatini oshirish maqsadida turli tadbirlar o'tkazilmoqda. Bunga 7 - sinflar o'rtasida bo'lib o'tgan «Zakovat» bellashuvini misol qilishimiz mumkin. Bu bahsni ona tili va adabiyot o'qituvchimiz Xayrixon Haydarova tashkil qildilar. 7- «A» sinfining «Boychechak», 7- «B» sinfining «O'zbekiston» va 7- «V» sinfining «Adolat» guruhleri ona tili, adabiyot va geografiya fanlari bo'yicha o'zaro kuch sinashdilar. Ular butun mahoratlari va bilimlarini ishga solib, g'oliblik uchun kurashdilar. Bu bahsda birinchi o'rin «O'zbekiston» guruhiga nasib etdi.

Mazkur tadbirdan maqsad shuki: «Olim bo'lsang, olam seniki». Biz ham ushbu maqolga rioya qilgan holda a'lo baholar bilan o'qiylik. Kelajak biz yoshlarning qo'lida ekanligini unutmaylik.

Mohira KENJAYEVA,
Maftuna TURSUNOVA,
Farg'ona viloyati, Quva tumanidagi
24 - umumiy o'rta ta'lim maktabining
7 - «V» sinf o'quvchilari.

dam olib, ingliz tili o'rganish, o'yinchoqlar yasash, tikish-bichish, ekologiya va tabiatni asrash kabi mashg'ulotlar bilan o'tkazib, yana butun sinf, butun oila bo'lib birga bo'lar ekanmiz. Har bir kunimiz foydali o'tishi esa xalqimiz uchun, Vatanimiz uchun yetuk inson bo'lishimizga yordam beradi. Biz uchun tinim bilmay mehnat qilayotgan opajonimiz, minnatdorchiligimizni qabul qiling. Biz esa sizning ishonchingizni oqlashga harakat qilamiz.

Buxoro viloyati,
G'ijduvon
shahridagi 5 - o'rta
maktabning
5-«A»sinf
o'quvchilari.

«QIZIL QALPOQCHA» - INGLIZ TILIDA

M a k t a b i m i z o'quvchilarining ingliz tili faniga qiziqishi ancha baland. Bizga ingliz tili fanidan oliy toifali o'qituvchilar Xudoyqul Rahimov, Allayor Normurodov va birinchi toifali o'qituvchi Ro'ziboy Qorayevlar saboq berib kelmoqdalar. Yaqinda maktabda ingliz tili haftaligi o'tkazildi. Unda bir qator qiziqarli tadbirlar bo'lib o'tdi. Ayniqsa, 6 - «V» sinf o'quvchilarining «Qizil qalpoqcha» ertagini ingliz tilida sahnalashtirib, namoyish etganlari barchada o'zgacha taassurot qoldirdi. «Qizil qalpoqcha» timsolini Sadoqat Mamataliyeva, Shoir Ergasheva, bo'rini Sanjar Mamataliyev, Ruslan Yo'ldoshev, onani Nigora Jo'rayeva, ovchini esa Siroj Yoqubjonovlar ijro etib berishdi. Matnlarni Jo'ra Choriyev o'qidi.

Ertakni o'quvchilar katta qiziqish bilan tomosha qildilar. Kelgusida ular o'zbek xalq ertaklarini ham ingliz tilida o'quvchilarga taqdim etish niyatidalar.

Nargiza RAHIMOVA,
Surhondaryo viloyati, Denov tumanidagi 36 - o'rta umumiy ta'lim maktabining 5 - «V» sinf o'quvchisi.

Hovlimiz kengligi uchun har nonushtaga yaqinda issiqxona qurdik. U eltmoqchiman. Oyimlar yerga limon ko'chatlaridan limonli pirogni juda mazali

KONI FOYDA LIMON

o'tqazdik. Kelajakda kattagina limonariya hosil bo'lsa ajab emas. M u h a b b a t x o n buvijonim va Sayfiddin bobomlar ko'p qavatli uyda istiqomat qilishadi. Men ularga har doim h o v l i m i z d a y e t i s h t i r g a n

ko'katlardan, meva-yu tayyorlaydilar. Aytadilarki, sabzavotlardan olib limon nafaqat qon bosimiga, boraman. Endi buvijonim balki kishi tanasini turli qon bosimlariga foyda xiltlardan tozalashga ham limonning yangi-yangisidan foyda berarkan. Agar limonli



niqob 10 kun davomida yuzga surtilsa, yuz terisini tiniqlashtirib oqartirarkan. Tumov yoki gripp bilan xastalanganlar limon choy ichsa, darddan xalos bo'larkan. Xullas, ta'til davomida issiqxonada yetishtirilayotgan koni foydali limonlarni parvarish qilishga astoydil bel bog'laganman.

Izzatilla ABDULLAYEV,
Toshkent shahri, Yunusobod tumanidagi 273-litsey-maktabining 6-sinf o'quvchisi.

DUGONALAR BILAN DALADA

Ta'til boshlanganda dugonalarim bilan dala va tomorqa ishlarida otanalarimizga ko'maklashishga ahd qildik. To'g'ri, o'zimizning yumushlarimiz ham bor. Qiz bolabop ishlar, supur-sidir, kuydir-pishir. Biroq, tomorqa ishlarini bajarish ham gashtli. Ayniqsa, sahar tongda o'tlarni yulish, yerni ketmonchada chopish, sug'orish amallarini aytmaymizmi? Bunday ishlar bizning ham qo'limizdan keladi. Tushlikdan so'ng barcha qizlar yig'ilishib, kitob o'qiymiz, she'r, hikoya yozamiz, boshqotirmalar yechib, vaqtni xushnud o'tkazamiz. Bunday foydali va unumli, so'lim oromgohi yana qayda bor?

Dala va tomorqada olinadigan daromadga esa maktab uchun o'quv qurollarini xarid qilamiz.

Nargiza va Nigora,
Samarqand viloyati, Jomboy tumanidagi Alisher Navoiy nomli jamoa xo'jaligi, Sherqo'rg'on qishlog'i.

HAR BIR KUN SHODLIK



«Vataniga, xalqiga, do'stlariga, oilasiga cheksiz mehr - chinakam baxtdir».

Bu sevimli ustozimiz Dilara opa Rahmatovnaning so'zlari. Dilara opa 20 yildan ortiqroq shu internatda ham tarbiyachi, ham o'qituvchi bo'lib ishlaydilar. Bizning 2-son davolanish internat maktabi shu viloyatda yagona bo'lib, u yerda biz yagona oilaning farzandlaridek yashab, ta'lim olamiz. Internatimizda hamma narsa yetarli. To'rt mahal issiq ovqat, sport, ommaviy ishlar yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bizga xuddi ikkinchi onamizday bo'lib qolgan murabbiyimiz Dilara opaning kelishlarini sabrsizlik bilan kutamiz. Chunki har bir kun bizga cheksiz shodlik baxsh etadi. Butun mehrini bizga baxshida etgan Dilara opa bizni o'z hisoblaridan qadr don gazetamiz «Tong yulduzi»ga obuna qilganlar. Biz bo'sh vaqtlarimizda mazza qilib gazeta o'qiymiz. Shu gazeta orqali opajonimizni tug'ilgan kunlari bilan chin qalbimizdan tabriklaymiz. Hamisha baxtimizga sog'-omon bo'lsinlar.

Buxoro viloyati, G'ijduvon shahridagi 2-son davolash internati, 8 - «A» sinf o'quvchilari.

**Mustaqil yurt bolalari iqtidorlidir!**

Nigora Shomansurova Sirg'ali tumanidagi 322-maktabda ishlaydi. O'quvchilarga rus tili fanidan saboq beradi. U o'zining tirishqoqligi, izlanuvchanligi, yangilik sari intiluvchanligi bilan barchaning hurmatini qozondi, bolalar qalbiga to'g'ri yo'l topa olishi bois ularning haqiqiy do'sti, sirdoshiga aylandi. Nigoraxonning tashabbusi bilan o'tkazilayotgan kecha va tadbirlarda o'quvchilarning faol ishtirok etishlari, tomoshalar zalidagi o'rindiqlarning to'la bo'lishi ham shundan...

Yaqinda ana shunday tadbirlardan biri - a'lo o'qishi bilan emas, namunali xulqi, chaqqonu zukkoligi bilan maktabdoshlari orasida tanilib ulgurgan qizlar

«Kim tez va soz dasturxon bezaydi?» kabi qiziqarli topshiriqlardan iborat bo'ldi. Shartlar bo'yicha berilgan barcha savollarga to'g'ri va aniq javob berolgan Dilshoda ismli qizimiz «Siz o'shasiz!» nominatsiyasi bo'yicha bahsimiz g'olibasi bo'ldi.

Har jihatdan dugonalaridan ustun kelgan xushsurat Dilshodani suhbatga tortdim, kelgusidagi orzulari bilan qiziqdim:

- Dilshodaxon, bir o'zbek qizi ega bo'lishi lozim bo'lgan barcha fazilatlariga ega ekanligingizning guvohi bo'ldik. Yana nimalarga qiziqasiz, sevimli

**SIZ****O'SHASIZ...****mashg'ulotingiz qanday?**

- Men hamma sohaga qiziqaman, hamma narsani bilgim keladi. Ingliz tilini, kompyuterda ishlashni o'rganyapman. Tikish-bichish, to'qish ham mening sevimli mashg'ulotlarimdan biri. She'rlar mashq qilaman, rasm chizaman.

- Dugonalarigiz bilan o'ynashga ham fursatingiz bo'ladimi?

- Albatta. Aytsam ishonmaysiz. Biz qizlar bilan hatto futbol ham o'ynaymiz.

- Hayotdagi shioringiz, orzularingiz qanday?

- Shiorim: «Faqat olg'a intilmoq. Maqsadga erishish yo'lidagi qiyinchiliklardan cho'chimaslik». Orzuim

esa huquqshunos bo'lish...

Hakamlar hay'ati a'zosi sifatida qizlar bahsini kuzatar ekanman, ularning bilimdonu zukkolikda hech kimdan qolishmasliklarini ko'rib, ko'nglimda faxr, iftixor hissini tuydim. Ayniqsa, atlas ko'ylaklari-yu zardo'zi do'ppilari o'ziga yarashgan, mayda qilib o'rilgan uzun sochlari ko'rkiga ko'rk qo'shib turgan Dilshodaxon timsolida go'zalligul latofatda, ibo-yu hayoda tengsiz bo'lgan Kumushbibini ko'rgandek bo'ldim. Uning qalbidek pok, oppoq niyatlarining ijobatiga tilakdosh bo'ldim.

Nasiba TURDIQULOVA,
ona tili va adabiyot
fani o'qituvchisi.



nihollari» kabi bir necha musobaqalar bunga misol bo'la oladi. Imkon topdi

Orifjon Oripovdir. U bolalik yillaridanoq sportga qiziqib, kurash bilan shug'ullana

“DZYU-DO” MAKTABINI OCHIMOQCHIMAN

deguncha o'z vaqtini samarali o'tkazib, har tomonlama o'zini ko'rsatayotgan yoshlarimizdan biri Samarqand viloyatining Urgut tumanida tug'ilib, hozirda poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi 142 - maktabning 8 - «B» sinfida tahsil olayotgan

boshladi va bir necha musobaqalarda qatnashib, yoshlar o'rtasida kurashning DZYU-DO turi bo'yicha 70 kilogramm vaznda mutloq g'oliblikni qo'lga kiritdi.

-Men «Dinamo» jismoniy-sport jamiyati DZYU-DOchilariga havas qilaman. A.Tangriyev, F.To'rayev kabi

polvonlardek bo'lishni orzu qilaman va kelajakda Urgut tumanida o'zim sport jamiyati tuzib, kuchli «DZYU-DO maktabi» yaratmoqchiman. Kelgusida O'zbekiston bayrog'ini chet davlatlarda baland ko'tarishni niyat qilganman, - dedi bizga o'z yutuqlaridan faxrlanib Orifjon. Biz ham Orifjonga va yosh DZYU-DOchilarga zafarlar tilab qolamiz.

Siyovushxo'ja HOSHIMOV.

Mustaqillik sharofati bilan yoshlar uchun ko'p sharoitlar yaratib berildi, ayniqsa, sport sohasida. «Barkamol avlod uchun», «Quvnoq startlar», «Umid

Sog' yurak - tog' yurak

«Chempion» so'zi qaysi bolaning yuragida havas uyg'otmaydi, deysiz? Men o'zim ham oynaib jahon ekranida chempionlarni ko'rganimda judayam havasim keladi. Ukam boks to'garagiga qatnaydi. Hali juda kichik bo'lgani uchun uni o'zim olib borib, mashg'ulotlarini tomosha qilib o'tiraman.

Omadni qarangi, yaqinda besh yildan beri boks bilan shug'ullanib, O'zbekiston chempionatlari, kuchlilar turnirlarida qatnashib, sovrinli o'rinlarni egallagan; institut birinchiligi va Jakson xotira turniri chempioni bo'lgan G'ulom aka Qosimov bilan tanishib qoldim.

G'ulom Qosimov asli farg'onalik. Hozirda Toshkent Davlat jismoniy tarbiya institutida tahsil oladilar. Boks bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi treneri Murod Turdiyevni, Spartak boks maktabi a'zolari Aleksandr Erzakov, Shuhrat Isroilov, Boris Nazarovlarni ustozlari va hayotdagi eng yaqin sirdoshu do'stlari deb ataydilar. Barcha bokschilar singari Artur Grigoryanga hurmat va havas bilan qaraydilar.

-G'ulom aka, «Albatta chempion bo'laman», degan ishonch bilan chempionatga kelsangizu

ikkinchi yoki uchinchi o'rinni olsangiz, xafa bo'lasizmi?

-Albatta, g'olib bo'lolmagan paytda odamning ko'ngli juda cho'kib ketadi, tushkunlikka tushadi. Sidqidildan mehnat qilib, astoydil shug'ullangan odam esa albatta g'olib

bo'lsa kerak. Boksda qiyofaning ahamiyati yo'q. Faqat ringga chiqish oldidan raqibingizni ko'rganda «Ko'rinishdan mendan kuchliroqqa o'xshaydimi?», deb o'ylashingiz mumkin, xolos. Lekin bong chalingach, hammasi unutiladi. Olam siz

kelardi. Shunda dadam: «Sport bilan shug'ullansang baquvvat, sog'lom bo'lasan. Kuchli, sog'lom yigitlar esa o'zini, oilasini, qolaversa, el-yurtining suyangan tog'i bo'ladi. Hozir mening aytganimni qilib tur, ertaga rahmat aytasan», - derdilar. Haqiqatan ham o'shanda dadamning naqadar haq bo'lganliklariga endi amin bo'lyapman.

G'ALABANING OMILI - MEHNAT

bo'ladi. G'alabani bosh omili - mehnat va izlanishdir. G'olib bo'lolmadingizmi, demak kamroq mehnat qilgansiz, endi mashqlarni yanada kuchaytirish lozim. «Bugun g'olib bo'lolmagan ekanman, ertaga albatta birinchi o'rinni egallayman», - degan aqida bilan yana mashqlarni boshlab

yuboraman. Va, jazm qilgan narsamga albatta erishaman.

- «Bokschilar Mayk Taysonning basharasini ko'riboq o'zini yo'qotib qo'yishadi», - degan gap bor. Shu rostmi?

-Yo'g'-e, hazillashishgan

bilan raqibingizdan iborat bo'lib qoladi. Endi ikkovingiz tengsiz. Sizga ham, unga ham bitta narsa - g'alaba kerak. G'alaba esa kim ko'proq mehnat qilgan bo'lsa, o'shanga nasib etadi.

-G'ulom aka, bolaligingizda o'rtoqlaringiz bilan ko'p mushtlasharmidingiz?

-Juda ko'p emas, el qator i mushtlashardik. O'g'il bolalar orasida mushtlashish uchun doim bahona topiladi-da... Ba'zan mushtlashuvlarda o'zimga qattiqroq kaltak tegib qolsa, «Pichoqni avval o'zingga ur, og'rimasa boshqaga», degan naql esimga tushardi. Shuning uchun ham hech qachon birovni nohaq xafa qilmaslikka harakat qilaman.

-Boksga bolaligingizdan qiziqqanmisiz?

-Bilasizmi, ha desam, sal mubolag'a bo'lib qoladi. Dadam ertalab biz - besh nafar o'g'ilni barvaqt uyqudan uyg'otib, yugurishga va sovuq suvda yuvinishga majbur qilardilar. Bolalik ekan, ba'zan erinib uyqudan ko'z ochgimiz kelmas yoki issiq ko'rpadan chiqish malol

-Bo'sh vaqtingizni qanday o'tkazasiz?

-Bo'sh vaqtim judayam kamdan-kam bo'ladi. Shunda basketbol o'ynashni, xorijiy va milliy estrada qo'shiqlarini tinglashni, fantastik filmlar tomosha qilishni yoqtiraman.

-Qanday taomlarni xush ko'rasiz?

-Ochig'i, ovqat tanlamayman. Bilasizmi, ovqatni suzayotganda bechora «Odamlar men haqimda nima deyisharkin?», deb titrab turarmish. Yoshligimda oyim shunday derdilar, shuning uchun biz sirayam ovqat tanlashga o'rganmaganmiz... Umuman olganda, lag'mon, manti, palov va qozon kaboblarni maza qilib yeyman.

-Kelajakda orzularingiz qanday?

-Maqsadim - jahon chempionatlariga, olimpiadalariga chiqish, O'zbekistonimiz bayrog'ini baland ko'tarishdir.

-G'ulom aka, ezgu niyat bilan 'charm qo'lpoy kiyayotgan bolajonlarga qanday tilak bildirasiz?

-O'zbekistonning sport bilan do'st tutingan o'g'il-qizlari ko'payaversin. Sportga qadam qo'ygan bolajonlar uning mashaqqatli mehnatiga bardosh bersinlar. Mehnatning tagi esa albatta rohat bo'ladi.

Gulnoz TOJIBOYEVA suhbatlashdi.



Xisobot

Namangan viloyati, «Sog'lom avlod» bolalar va o'smirlari ijodiy markazida doimo o'quvchilar gavjum. Sababi bu yerda bolalar uchun barcha sharoitlar muhayyo.

Hozirda viloyatdagi 887 nafar o'quvchilar o'z qiziqishlariga ko'ra turli to'garak va klublarga qatnaydilar.

Markazning asosiy maqsadi o'quvchilarni bo'sh vaqtini unumli

top», «Qo'shning tinch-sen tinch», «Ogohlik-davr talabi», «O'z kasbining mohir ustasi», nogiron bolalar o'rtasida o'tkazilgan «Zamon bolalar tasavvurida» mavzularidagi davra suhbatlari va ko'rik-tanlovlari shular

qoidalarini bildiruvchi mashg'ulotlar ko'rsatilgan. Bu xolat bolalar o'rtasida yo'l transport hodisalarini oldini olishda amaliy yordam bo'lmoqda.

Viloyat o'quvchilari o'rtasida yozgi sog'lomlashtirish ishlarini

kichkintoylariga taqdim etmoqdalar.

Markazda «Oila, mahalla, maktab» hamkorligiga alohida e'tibor qaratilgan. «Dashtbog'» mahalla hududidagi oila farzandlaridan turli sabablarga ko'ra

bog'chaga qatnamaydigan 25 nafar o'g'il - qizni markazga jamlab

«Maktabga tayyorlash guruhi» tashkil etilgan.

Markazdagi to'garaklarga rahbar sifatida shu mahallada yashovchi xunarmandlar jalb etilganki, natijada o'quvchilar faqat mashg'ulot vaqtidagina emas, balki boshqa paytlarda ham o'z rahbarlari xonadonida birga bo'lib, «Usto-shogird» usulida kasb-hunar sirlarini o'rganmoqdalar.

«Yangi ish boshlagan to'garak rahbarlari uchun esdalik» deb nomlangan uslubiy yo'riqnoma tayyorlanib, har haftaning seshanba kunlari ularning ishi tahlil qilib boriladi, deydi markaz direktori.

«Sog'lom avlod» markazining boshqa maktabdan tashqari ta'lim muassasalaridan yana bir asosiy farqi, bu markazda o'quvchilar kasb-hunarni egallash bilangina band bo'lib qolmasdan, mashg'ulotlar mobaynida turli xil tadbirlar, milliy o'yinlar, tanlovlar, sport musobaqalarini uyushtiradilar. Kompyuter o'yinlari bilan ham shug'ullanadilar. Markazdagi ustozlarning maqsadlari yagona. U ham bo'lsa «Sog'lom avlod» tarbiyalanuvchilariga hamma ko'rganlar havas qilsin. Ulardek bo'lishni orzulashsin.

Feruza ODILOVA.

KO'RGANLAR HAVAS QILSIN

jumlasidandir. Viloyatdagi yetakchilar faoliyatini yanada oshirish maqsadida «Men Siz bilan» deb ataluvchi ko'rik-

unumli tashkillash va mavsumni talab darajasida o'tkazish markazning mas'uliyatli vazifalaridan biridir. Bu vazifani muvaffaqiyatli ado etish uchun har mavsumda alohida tadbirlar rejasi tuzilgan.

Markazdagi to'garaklarda o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, «Kosibchilik», «Bichish - tikish» to'garaklari viloyatdagi Mehribonlik uyi, maktabgacha ta'lim muassasalari, ixtisoslashgan



o'tkazishdir. Undagi «Lazgi», «Orzu» ashula va raqs dastalari hamda «Sog'lom jon» qo'g'irchoq teatri o'quvchilarning yozgi ta'til kunlarida bolalar oromgohlarida konsert dasturlari namoyish etib kelmoqdalar.

- Markaz hududidagi «Dashtbog'» fuqarolar yig'ini va Namangan shahrining 19-,20-,41-,47-,51-, Davlatobod tumanidagi 33-,42-,49- va Namangan tumanidagi

35-, 37- maktab ma'muriyatlari bilan birgalikda ko'plab tadbirlar tashkillaymiz,- deydi «Sog'lom avlod» markazi direktori M.Mamajonov. - «Giyohvandlik - asr vabosi», «Men Siz bilan», «O'zingni, o'z uyingni o'zing asra», «O'yla, izla,

tanlov o'zining qiziqarliligi bilan alohida o'rin tutmoqda.

Klublar o'rtasida «XXI asrga- Sog'lom avlod bilan» tadbiri tashkil etilgan. Bunda viloyatdagi barcha umumta'lim maktablari va ixtisoslashgan maktablarning yuqori sinf o'quvchilari ishtirok etadilar.

Markaz hovlisida avtoshaharcha tashkil etilgan. Unda yo'l harakati

va maxsus maktab - internatlar bilan shartnomalar tuzgan holda o'quvchilarga oyoq kiyimlar tarqatib, formalar tikib bermoqdalar.

«Yumshoq o'yinchoqlar» to'garagi a'zolari esa qog'oz chiqindilaridan ertak qahramonlarining katta hajmdagi shakllarini yasab, maktabgacha tarbiya muassasalari





QAYSAR QIZ QUYILARMIKIN?

Men 8-sinfda o'qiyman. Sinfimiz deyarli bir-biri bilan ahil. Deyarli deyishimning sababi bor, albatta. Bizning sinfimizda Lola ismli bir qiz bor. Ammo sira ham uni «Lola» deb chaqirishimizni istamaydi. «Lolitta», yoki oyisi va dadasi kabi «Lolochka» deb chaqirishimiz kerak emish... Bunisi ham mayli, sinfimizdagi qiz va o'g'il bolalarni xuddi chet eldagidek 3 tabaqaga bo'lib qo'ygan. «Yuqori» tabaqaga chiroyli kiyinadigan qizlar kirishadi, «o'rta» tabaqaga o'rtacha kiyinadigan, ota-onalari o'rtacha ishxonada ishlaydiganlar, «past» tabaqaga ota-onasi oddiy ishda ishlaydiganlar kirishadi. Bu qizlarni hech kim o'zlariga qo'shishmaydi. O'zlari alohida o'ynab, alohida yurishadi. Lolaga o'qituvchilar ko'p marta tushuntirishdi. Lekin u tushunishni ham xohlamadi. Buni ustiga juda ham qaysar. Unday emas, bunday deya, aytganini qildirishga o'rgangan. Uni deb qorani oq, oqni qora deyishga majburmiz. Endi 9-sinfga o'tdik. Lolani quyilib qolar, deb o'ylaymiz. Bu haqda yozmasam ham bo'lardi, lekin uni ketidan ergashib ketayotgan qizlarning kelajakdagi taqdirleri qanday bo'lishini ko'z oldimga ham keltirolmayman.

*Oqila DAVRONOVA,
Toshkent viloyati,
Novdak qishlog'i.*

Qulog'ingga gapim bor



Biz oilada 8 nafar farzandimiz. O'zim 9-sinfda o'qiyman. Bu yil maktabni bitiraman, degan umidda edim. Lekin ota-onam meni 11-sinfgacha o'qishim kerakligini aytishmoqda. Har kuni ertalab o'qishga ketayotgan talabalarni ko'rsam, ichim g'alati bo'lib ketadi. Chunki meni ham Toshkentga kelib, qaysi soha bo'lmasin, o'qigim keladi,

bir yerga kirib ishlayverasan, mana biz ham o'qimay turib, sizlarni boqayapmiz-ku", deyishadi. Menga bu gaplar

ettirisharkan. Ularga havasim keladi. Men ham bu yil omadimni

MENGA MASLAHAT BERING

lekin...
Hamma gap ana shunda. Oilada ko'pchilik bo'lganimiz uchun ota-onam bizni o'qita olmasliklarini aytishadi. "Maktabni bitirgach, biron

alam qiladi. Chunki deyarli hamma sinfdoshlarim bu yil maktabni bitirib, kollej yoki litseylarga kirib o'qishmoqchi. Mabodo omadlari kelmasa, yana o'qishni davom

sinab ko'raman, deb ota-onamni ko'ndirmoqchi bo'lsam, ular meni eshitishni ham istashmadi. Meni esa o'qigim, biron bir kasb egasi bo'lgim keladi. Ota-onamning gaplariga kirib,

biron joyda oddiy ishchi bo'lib ishlashni, haq-huquqimni bilmay o'tishni aslo istamayman. Menga maslahat bering, nima



qilay, ota-onamning gaplariga kirib, uyda o'tiraveraymi yoki o'z orzularim sari intilaymi?

*Gulnoza ZARIPOVA,
Toshkent viloyati,
"Bo'stonliq" jamoa
xo'jaligi.*

Sahifani Ozoda Tursunboyeva tayyorladi.

ISMIMDAN UYALAMAN

Mening ismim Umrinisa. Oyimlarning mendan oldingi farzandlari nobud bo'lgani uchun meni ismimni umri uzoq bo'lsin deya shunday qo'yishgan ekan. Lekin ismimdan... uyalaman. Chunki sinfdoshlarim, tanishlarim meni «Umir» yoki «Umka» deb chaqirishadi. Oyimlarga necha martalab ismimni o'zgartirishlarini iltimos qildim. Lekin ular menga: «Ismingni buvang ne umidlar bilan qo'yganlar. O'zgartirsak, buvangni ruhlari bizdan xafa bo'ladi», deyдилar. Lekin men sinfdoshlarimni oldida uyalaman. Ular doim menga: «Nega isming ikki seriyali? Boshqa zamonaviy ismga o'zgartirsang bo'lmaydimi?» deyishaveradi. Men ularga oyimning gaplarini aytsam, meni irimchiga chiqarishadi. Ba'zida siqilib, yig'lab ham olaman. Achinarlisi, mening siqilayotganimni ko'rib, oyijonim ham xafa bo'lib ketadilar. Sinfdoshlarimga qanday qilib tushuntirishni bilmayman. Ular meni tushunisharmikin?

*Umrinisa TOLIPOVA,
Toshkent viloyati,
Parkent tumanidagi
Nevich qishlog'i.*

Bu galgi so'nggi qo'ng'iroq mening yodimga faqat noxushliklarni soldi desam ham bo'ldi.

Sababi, bir yil avvalgi qilgan qilmishlarim endi esimni taniganimda menga qora dog' misoli yopishib olganini his qildim. Sinf-doshlarim ichida eng zamonaviy kiyinadigani bo'lganim sabab, o'qituvchilardan tez-tez gap eshitib turardim. O'zlarida yo'q-da, ko'rolmaydilar, degan o'y bilan ularni pisand qilmasdim. Qaytaga sinfdagi qizlarni kamsitishdan bo'shamasdim. Oxirgi qo'ng'iroq kuniga o'zgacha tayyorlandim. Bozorga har kuni tushib, ko'ylaklarni ko'rib kelishdan charchamasdim. So'nggi

qo'ng'iroq kuni qizlardan ajralib turish men uchun hamma narsadan muhim edi. O'sha, men kutgan kun ham yetib

keldi. Maktabga keldimu odmi kiyingan sinfdoshlarimni ko'rib, ularni kamsitishga tushdim. O'zimcha qilgan ishimdan xursand edim. Ularni hammani yonida obro'sini «bir pul» qilganimdan mag'rur edim...



ALAMLARDA KUYAMAN...

Senga aytgan qahrli so'zim,
Unutgin-da, kechirgin meni.
Bu dunyoda topgan baxtimsan,
Quvonchim ham baxtimsan meni.

O'shanda men omadlardan mast,
Yurdim g'urur tojini kiyib.
Seni aslo qilmayin pisand,
Adashdim, o'zgani do'st bilib.
Keyin bilsam, xato qilibman,
So'zlaringni anglab men yolg'on.
Lekin endi vaqt kech, o'zimga
Dushman erur so'nggi pushaymon.

«Uzrlarim qabul et do'stim»,
Ushbu erur senga so'ng so'zim.
Endi hijron sharobin ichib,
Alamlarda kuyaman o'zim.

*Gulruhbegim ODASHBOYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Respublika Nafis san'at
litseyi o'quvchisi.*

Oradan ozmi-ko'pmi vaqt o'tmay oilamiz boshiga ketma-ket mushkulliklar tusha boshladi. Men

endi yaxshi kiyinmaganlari mas'hara qilish u yoqda tursin, o'zim ham xohlaganimcha kiyin olmay qoldim. Hozir sinfdoshlarimdan birortasini ko'chada ko'rib qolsam, ko'rmaganga olib o'tib ketishga harakat qilaman. Oldingiday kibr-havo ham yo'q. Ularning ko'ziga qarashga ham uyalaman.

Aziz dugonajonlar! Ortiqcha kiyim -kechakka o'ch bo'lmang. Dugonalarigiz ko'nglini ranjitadigan gaplarni gapirmang. Toki men kabi so'nggi pushaymon, o'zingizga dushman bo'lib qolmasin.

SHAHNOZA.

UZR, AZIZ USTOZLAR

Avvallari maktabni qachon bitirarkanmiz, deb soat sayin kutardik. Bir-birimizdan ajralgimiz kelmasa-da, tezroq katta bo'lib qolsagu maktab bilan xayrlashsak, deb orzu qilardik. Bizning sinf maktabimizdagi eng ko'zga ko'ringan sinflardan biri edi. Dars bilan bir qatorda to'polonni ham barobar olib borardik. Sinf-dosh o'g'il bolalarimiz hurmatimizni joyiga qo'yib, himoya qilishardi. Hozir ham tez-tez uchrashib turibmiz.

Shu o'rinda biz bilib-bilmay ranjitgan ustozlarimiz - birinchi o'qituvchimiz Xolida opa Ismatova, Gulnoza Saidova, Roziya Tursunboyeva, Salima Ro'zmetova, Risolat Safoyeva, Gulnora To'xtayeva, Matluba Ibragimova, sinf rahbarimiz Go'zal opa Rasulovadan va boshqa ustozlarimizdan uzr so'ramoqchimiz. Ularni chin dildan yaxshi ko'ramiz.

*Toshkent viloyati,
Qibray tumanidagi*

*19 - maktabning sobiq 9 - «B»
sinf o'quvchilavri nomidan
Saodat ISMATOVA.*

DO'ST BO'LISHGA BAHONA

Maktabimizdagi 5 - «A» sinf o'quvchilari bilan ozgina arazlashib qolgandik. Ular bilan yarashish maqsadida «Balli qizlar» tadbirini «o'ylab topdik». Bu tadbir biz o'ylaganimizdan ham ajoyib natija berdi. Biz ular bilan do'stlashib qoldik. Endi esa bu do'stlikni yanada mustahkamlash uchun ikkala sinf KVN o'tkazmoqchimiz. O'ylaymanki, endi do'stligimiz hech qachon buzilmaydi. Menimcha, kechirim so'rab, qilgan ishlardan pushaymon bo'lgandan ko'ra, kechirim so'raladigan ishlarni kamroq qilgan ma'qulroq.

*Qizlarxon
YO'LDOSHEVA,
Toshkent shahar,
Mirobod tumanidagi
214 - maktabning
5 - «V» sinf o'quvchisi.*

Bu voqea 9 May - Xotira va Qadrlash kuni arafasida bo'lgandi. Eshik qo'ng'irog'i shitob bilan jiringladi. Munisxon aya «hozir» deya tashqariga shoshildi. Aya eshikni ochganida ro'parasida kayfiyati ancha tushkun holda nabirasi G'olibjon turardi. Uning bu holati Munisxon aya xavotirga soldi. O'zicha birortasi G'olibjonni xafa qilgan bo'lsa kerak, deb o'yladi. Ammo sir boy bermay nabirasini kiyimlarini almashtirib, choy ichishga undadi. Tushki ovqat paytida Munisxon ayaga ko'p narsalar ayon bo'ldi. G'olibjonning aytishicha, yaqin kunlar ichida maktablarida «9 - may Xotira va Qadrlash kuni»ga bag'ishlangan tadbir

o'tkazilarkan. Kechaga sinfdoshlarining dadalari va buvalari taklif qilishibdi. O'quvchilar ularni urush va mehnat faxriylari sifatida tabriklab, she'r va qo'shiqlar ijro etarkanlar. Shu tadbirda G'olibjon ham she'r o'qishi lozim ekan.

g'animga qarshi kurashda ishtirok etdi va ular bilan bo'lgan otishmalar chog'ida halok bo'ldi. Buvang ham, dadang ham shu tinch, osuda kunlarimiz uchun, shu yurt, shu muqaddas tuproq, musaffo osmon

MENING TIMSOLIMDA YASHAYDILAR

uchun o'z jonlarini fido qilishdi. Sen bu tadbirda ular qatnasha olmaydilar,

deb xafa bo'lma, bolam. Ularning pok ruhlari tirik! Nomi o'chmas

U buvasi va dadasining vafot etganligidan, shunday chiroyli tadbirda qatnasha olmasligidan xafa ekanligini aytdi. Bu holat Munisxon ayaga ham kuchli ta'sir qildi.

- Eh, bolaginam-a, - dedi ko'zlarida yosh aylanib. - Yonimga o'tirib, gaplarimga quloq sol. Buvang rahmatli fashist bosqinchilarga qarshi


kurashda mardlarcha halok bo'lgan. Dadang, ya'ni o'g'lim Ulug'bek ham Sariosiyo va Uzun tumanlarida Vatanimizga xoinlarcha bostirib kirgan, tinchligimizga tahdid solmoqchi bo'lgan

va abadiy! Ular sen va sening nigohing orqali shu tantanada ishtirok etadilar. Sen qanchalik shod bo'lsang, a'lo o'qib, komil inson bo'lib kamol topsang, ularning ruhlari shunchalik shod bo'ladi...

Munis aya lablarini pichirlatib, Qur'on tilovat qildi va duoga qo'l ochdi:

- Ilohim yurtimiz tinch bo'lsin, qasd qilganlar past bo'lsin, turmushimiz farovon bo'lsin!

*Azima QIYOSOVA,
Buxoro viloyati, Qorako'l
tumanidagi 1 - ixtisoslashgan
maktab - internatning
9 - «G» sinf o'quvchisi*



Men tug'ilgan kun bobomning ko'zlariga yosh kelgan ekan. Bobo! Bu so'z naqadar huzurbaxsh. Bobo meni «Meni birinchi bobo qilgan n a b i r a m ,

karvonboshim», deb suyardilar. Bo'yim bo'ylari

bilan teng bo'lib qolgan bo'lsa ham meni erkalashni kanda qilmas, yeru ko'kka ishonmasdilar. Ular doimo: «Siz mening karvonboshimsiz. Qolgan nabiralarim esa sizga ergashgan karvon. Siz to'g'ri yo'ldan yursangiz, orqangizdagi karvon ham shu yo'ldan yuradi, manzilga adashmay yo'l topadi. Siz egri yo'l tanlasangiz, karvonni sarson-sargardon qilasiz. Bolam, sizga katta mas'uliyat yuklangan. Siz uni uddalashga harakat qiling» - der edilar. Bu gaplarni ma'nosini tushunmasam -da, jim

KARVONBOSHI

eshitib turardim. Bu hikmatga boy so'zlarning mag'zini endi-endi chaqyapman. Endi bilsam, bobojonim meni hayotga teran ko'z bilan qarashga, har bir ishni o'ylab qilishga va yaxshi fazilatlar egasi sifatida hamma o'rnak bo'lib yurishga undagan ekanlar. Yaqinda bobojonim vafot etdilar. O'zlari yo'q bo'lsalar ham, menga qilgan nasihatlar doim yodimda.

Bobojon! Kunlar o'tgan sari sizning o'rningiz ko'proq bilinyapti. Men siz xohlagandek karvonboshi bo'lishga va sizga munosib nabira bo'lishga harakat qilaman.

*Dildora MEYLIYEVA,
Qashqadrayo viloyati, Qarshi
shahridagi Kompyuter
texnologiyasi kollejining
I - kurs talabasi.*

Ibrat

O'RNAK BO'LSA ARZIYDI

Toshkent shahrining Akmal Ikromov tumanidagi Qozi Guzar mahalla oqsoqoli Murod Mansur hamda mahalla faollari xayri ishga qo'l urdilar. Mahalla qoshida kutubxona ochildi. Kutubxonaning ochilish marosimiga bag'ishlangan tadbirda bir qancha adiblar, shoirlar, ijodkorlar, olimlar ishtirok etib, o'zlarining sara asarlarini sovg'a qildilar. Xalq sevgan xonanda Ilhomjon Farmonovning qo'shiqlari tadbirga o'zgacha ruh bag'ishladi. Shundan so'ng mahalla oqsoqoli kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalar farzandlariga kitoblar taqdim etdilar.

Qani edi, bu kabi ibratli ishlar har bir mahallada yo'lga qo'yilsa. Zero, kitob - bilim manbai. Undan taralib turgan ilm nurlari esa har bir inson qalbidagi zohirdir.

Adolat G'AYRAT qizi.



Qanday

-Zoologiya, sog'lom avlod asoslari kabi fanlar juda qiziqarli. Matematika, fizikalar ham yoqadi-yu lekin

barcha turlarini pishira olaman. Qo'limdan kelgancha oyijonimga ko'maklashishga harakat qilaman.

-Kelajakdagi orzuingiz qanday?

-Shoira bo'lsam deyman. Yana kino aktrisa bo'lgim



UZUM

Kuzda xil-xil pishaman,
Hammaga xo'p yoqaman.
Uzumim dona-dona,
Misli go'zal marjona.



**MUALLIMIM
MAKTABIM**

Men maktabga boraman,
Maktab kichik Vatanim.
Unda ilm olaman,
Sog'lom bo'lar jon-tanim.

Ustozlarim bag'ri keng,
Bizga ilm beradi.
Bu maskandan o'g'il-qiz,
Bilim durin teradi.

Dilrabo YUNUSOVA.

GO'ZAL VAZN - ARUZ

-G'azal o'qishni yaxshi ko'raman. Qo'limdan Uvaysiyning kitobi tushmaydi, desam mubolag'a bo'lmaydi. Yana Alisher Navoiy, Bobur kitoblarini ham mutolaa qilaman.

-G'azalni o'qish va yod olish uchun aruz vaznini puxta bilish kerak. Sizga ko'maklashadigan ustozingiz ham bordir?

-Ha, albatta. Sinf rahbarimiz Mukarrama opa Rahmatullayeva ona tili va adabiyotdan saboq beradilar. Men ularga qanday savol bilan murojaat qilmay, miridan-sirigacha tushuntirishga harakat qiladilar.

-Yana qanday fanlarga qiziqasiz?

Tengdoshingiz Dilrabo Yunusova Toshkent shahri, Sobir Rahimov tumanidagi 249-maktabning 7-sinfida o'qiydi. O'zi qoralagan bir dasta she'rlari bilan tahririyatga kirib kelganda, hamkasblarim Dilraboni darhol tanishdi. Ikki kun avval «Yangi avlod» studiyasining «Dunyo va bolalar» ko'rsatuvida she'rlarini va Uvaysiyning g'azallarini juda chiroyli va ifodali o'qigan ekan.

baribir adabiyot ustun kelaveradi men uchun.

-Bo'sh vaqtingizda nima bilan mashg'ul bo'lasiz?

-Gazetalar o'qiyman. Ishonsangiz barcha dugonalarim boshqotirma yechishga qiziqadi. Men esa aksincha. Umuman boshqotirmaga qiziqmayman. Ajoyibotlarni, yangiliklarni, mo'jizalarni o'qiyman. Yana uy ishlari bilan shug'ullanaman. Ovqatning

keladi. Turli obrazlarga kira olaman. Goh yig'latib, goh kuldira olaman ham. Orzularim yo'lida tinmay o'qishga, izlanishga harakat qilaman.

-Niyatingiz ro'yobga chiqishida biz ham tilakdoshmiz, qizgina. Keling, she'rlaringizdan bir shingilini tengdoshlaringiz hukmiga havola qilsak.

*Muharrama
PIRMATOVA.*

«XAYR, BOSHLANG'ICH SINFI»

Mana, bu o'quv yili uchun ham so'nggi



qo'ng'iroq yangradi. Hayajonli daqiqa bizni ham o'z qamroviga oldi. Chunki boshlang'ich sinfni tugatib, endi yuqori sinf o'quvchilari safiga qo'shilamiz. Shu sababdan sinfimizda kichkinagina xayrlashuv tadbirini o'tkazdik. Maktab rahbarimiz Klara opa Shokirova a'lochi o'quvchilarni maqtoy yorliq bilan taqdirladilar. «Xayr, boshlang'ich sinf» deb nomlangan kechamizda o'z iste'dodlarimizni namoyon qilish bilan birga o'qish va



yo'zishni ilk bora o'rgatgan ustozimiz Nigora opa Xo'jayevaga minnatdorchiligimizni izhor qildik.

*Zamira AHROROVA,
Toshkent shahri,
Yunusobod tumanidagi
272-maktabning
4- «A» sinfi o'quvchisi.*


Bolalar she'riyati



BINAFSHA

Boychechak to'yga ketdi,
Yur demadi binafshani.
Qirlarda o'ynayverdi
Sog'inib yakshanbani.

Dam olish kuni qarang,
Bolalar ko'p kelishdi.
Qaytar chog'da binafshani
To'yga olib ketishdi.


SEVINCHNING
QO'G'IRCHOG'IGA
AYTGANLARI

-Sevinch nega o'z vaqtida
Ovqatingni yemaysan.
Nega endi qo'g'irchoq,
Menga shunday demaysan.
-Ko'yilagingni yoqasi
Kir bo'libdi, qaragin.
O'ynagani chiqamiz
Tez sochingni taragin.
-Shirinlikka qo'lingni
Cho'zaverma, bo'ldi, hoy.
Menga olib berganing
Hisob emas bilib qo'y.
-Salom odob husnidir,
Salom degin ertalab.
«Barakalla» der bobom
Ikkimizni erkalab.
-Beshikni bo'sh tebratma,
Hozir belab qo'yaman.
Yuzlaringdan qo'g'irchoq
Onamdayin suyaman.
-Ko'zingni yum, uxlaymiz
Soat o'ndan oshibdi.
Bizga alla aytgali
Ko'kdan oy ham tushibdi.

O'RGIMCHAK

O'rgimchak, hoy o'rgimchak
Shiftga solib arg'imchoq.
Birov bilan yo'q ishing
Bormi yo'qlar bir kishing.

Lash-lushingni yig'ishtir,
Oxir pand yeb qolasan.
Supurgidan yaqinda
Javob xati olasan.



MAYSA - DARAXT

Yuragingga og'irlik qilar,
Maysa nega daraxt bo'lmaydi.
Novdalari yulduz shaklli,
Yaproqlarga nega to'lmaydi.
Yuragingga og'irlik qilar,
Maysalarning ustidan yurmoq.
Sog'inchlarga aylana go'yo
Daraxt bo'lgan maysani ko'rmoq.
Yuragingga og'irlik qilar,
Har kim har xil sharhlayveradi.
Maysa daraxt, bo'lmaydi, lekin,
Seni orzu charxlayveradi.

Hamid NORQUL.

1. Sizingcha, odobli
bola bo'sh vaqtini nimaga
sarflaydi?

A. Moddiy ehtiyojlarni
qondirishga.

B. Ma'naviy estetik
ozuqa olishda.

S. Yaxshi ovqatlanish
va chiroyli kiyinish.

D. E'tiborli bo'lish.

E. To'g'ri javob yo'q.

2. O'zbekiston
Konstitutsiyasi necha
bo'lim va necha
moddadan iborat?

A. 6 bo'lim, 128 modda.

B. 6 bo'lim, 130 modda.

S. 5 bo'lim, 128 modda.

D. 7 bo'lim, 134 modda.

E. 8 bo'lim, 138 modda.

3. Qanday kishi nafs-
balosiga qul bo'ladi?

A. Yolg'onchi kishi.

B. Ochko'z kishi.

S. Sahiy kishi.

D. Mehnatkash kishi.

E. Hurmatli kishi.

4. O'quvchi
salomatligining asosiy
shartlari nimalardan
iborat?

A. Toza, ozoda yurishdan.

B. Pokiza kiyinish.

S. Kishining bilim darajasi.

D. A- S javob to'g'ri.

E. A- D javob to'g'ri.

7. O'zbekiston
kelajakda qanday
jamiyatni qurishga
intilmoqda?

A. Adolatli jamiyat.

B. Demokratik jamiyat.

S. Huquqiy davlat.

D. Fuqarolar jamiyati.

E. Barcha javob to'g'ri.

8. Birov o'g'irlab
olmaydigan, o'z egasi
uchun tuganmas davlat
nima?

A. Oltin, zar, boylik.

B. Mehnat, harakat.

S. Uy- joy, buyum.

D. Kasb- hunar, bilim.

E. To'g'ri javob yo'q.

9. Quyidagilarning
qaysi biri o'zbek xalqining

qadimdan tarkib topgan
an'analari sanaladi?

A. Bir- biriga
ko'maklashish.

B. Ko'chat ekish, uy
qurish.

S. Mehr oqibat.

D. A- B javob to'g'ri.

E. A-B-S javoblar
to'g'ri.

10. Rostgo'ylik,
to'g'risozlik g'oyasi ilgari
surilgan xalq maqolini
ko'rsating?

A. Mehnat qilsang, rohat
ko'rasan.

B. To'g'ri o'zar, egri
to'zar.

S. Sabrning tagi oltin.

D. Mehnat - mehnatning
tagi rohat.

E. Hunar o'rganish
uchun, hamma narsa
kerak.

I. ODILOV.

VATAN TUYG'USI FANIPAN



Bizning to'garak



Aziz bolajonlar! Har oqshom namoyish etiladigan «Oqshom ertaklari» ko'rsatuvini miriqib tomosha qilasiz, «Bor ekanu yo'q ekan..» deya boshlanadigan qo'shig'ini mazza qilib tinglaysiz-a? Lekin bu qo'shiqning so'zlari kimning qalamiga mansub ekanligini hammangiz ham bilavermasangiz kerak. To'g'risi, buni biz ham bilmasdik. «Istiqloq umidlari» to'garagimizning navbatdagi mashg'ulotiga bolalarning sevimli shoirasi Kavsar opa Turdiyevani taklif qilib, bu qo'shiqning so'zlari ularniki ekanligini bilib oldik. Odatdagidek bir soat emas, ikki soatga cho'zilib ketgan mashg'ulotimiz juda qiziqarli o'tdi. O'quvchilarni Kavsar opa haqidagi hamma-hamma ma'lumotlar qiziqtirardi. O'zingiz, ijodingiz haqida gapirib bering, deya savollarga «ko'mib tashlashdi».

- Sizlarga boqib, bolaligim, ilk she'rimni ko'tarib, mana shu gazeta tahririyatiga kirib kelgan onlarim yodimga tushib ketdi,-deya so'z boshladilar Kavsar opa biroz to'lqinlanib.- Biz ham Abdusaid aka Ko'chimov rahbarlik qiladigan «Yosh qalamkashlar» to'garagiga qatnardik. Birinchi she'rim gazetada chop etilgan kun - hayotimdagi eng quvonchli onlarimdan biri bo'lib qolgandi...

O'zim haqimda gapiradigan bo'lsam, poytaxtdagi 201-maktabni muvaffaqiyatli tamomlab, hozirgi Sankt-Peterburg

Davlat Universitetining jurnalistika fakultetida tahsil oldim. Biroz muddat rus tilida chop etiladigan bolalar nashrida ishladim. Hozirda Toshkent Pediatriya Tibbiyot institutida o'zbek, lotin va rus tillari kafedrasini mudiri bo'lib ishlab kelyapman. Shu bilan birga ko'p nusxali «Pediatri» gazetasiga muharrirlik qilyapman. Institutimiz qoshida «Nishona» nomli adabiy to'garak tashkil qilganmiz. Unga siz kabi adabiyotga, she'riyatga ixlosmand o'g'il-qizlar a'zo bo'lishgan. «Varrak», «O'y n a y a p m a n», «O'ylayapman», «Qush bo'lib uchgan ona», «Raqamlar

bo'ylab sayohat» nomli kitoblarim chop etilgan...

Kavsar opa kamtarlik qilib ko'p gapirmadilar. Ularning «Zumrasha» nomli kinojurnalning doimiy muallifi, Respublika radiosidagi «Shoira dars o'tadi» eshittirishining tashabbuskori va boshlovchisi ekanliklari, «Bola qalbini so'ylatib...» nomli to'plami 1997 yil tanlovida g'olib deb topilgani, «Maktabgacha ta'lim» jurnalining 2000 yilgi sovrindori ekanliklari, bundan tashqari «O'zbekiston - Vatanim manim» tanlovida «Vatan iqbol kutar» qo'shig'i bilan qatnashib, I - o'rinni olganliklari haqida



bolalarga men gapirib berdim...

Uchrashuvda nafaqat bolalar, balki biz ham Kavsar opaning hozirgi kundagi bolalar adabiyoti xususidagi munozarali fikrlarini zo'r qiziqish bilan tingladik. Ko'pchilik o'quvchilarning pul orqali yengil-yelpi kitoblarini chop ettirayotganliklari, bunday mazmunan sayoz kitoblarni o'qigan bolalarning esa mutolaadan ixlosi qaytishi mumkinligi haqidagi asosli mulohazalariga qo'shildik.

So'ngra navbat she'rxonlikka keldi. O'g'il-qizlarimiz o'z she'riy mashqlaridan o'qidilar, Kavsar opaning sho'x, quvnoq, o'ynoqi she'rlaridan tinglashdi.

Feruza JALILOVA.



TELEFONDAGI SUHBAT...

O'rnatishdi telefon
Bugun bizning xonaga.
Qo'ng'iroqni kim avval
Qilar deya onamga.
Avval rosa talashdik,
So'ngra zo'rg'a yarashdik.
Telefonda har soat,
Yetkazilar axborot.
Singlim choyni to'kkanin,
Menga mushtin tukkanin,
O'chib qolgani chiroq,
Yo'qolib qolsa taroq.
Achib qolsa ko'zimiz,
Va shunchaki o'zimiz,
Raqamlarni teramiz,
Va savollar beramiz.
Sog'indik-ku, oyijon,
Endi kelasiz qachon?
Dam olgach yana bir on,

Ishga tushar telefon.
Xabarlar yetar qushdek,
Oyijon qildik tushlik.
Qo'shnimiz bolalarin
Mehmonga aytdik barin.
Xavotir olmang mutloq,
Uyda bor ekan pishloq
Kullbosti-yu patir non,
Topdik pistalar xandon.
Qilgan ekansiz kecha
Malina qiyom picha
Ular yeb-yeb to'yishdi
Bizga rahmat deyishdi.
Telefon jim, biz quvnoq
Kulib qo'yamiz shu chog'.
Biroz vaqt o'tgach lekin,
Yana jiringlar sekin:
Oyi Norning xolasi
Tashlab ketdi bolasin,

Bozorga ketib o'zi,
Olaman dedi uzum.
Sho'x ekan oti Bashar,
Atigi ikki yashar.
Xonada chopar viz-viz,
Biz uni quvlayapmiz.
Ot bo'lib ham mindirdik
Oynani ham sindirdik.
Endi-chi balkon osha,
Qilayapmiz tomosha,
Uni mitti qushlardek
Yelkasidan ushladik.
Ko'yagidan tutyapmiz,
Onasini kutyapmiz.
Pastga qarar biz bilan
Gaplashsinmi siz bilan?
Go'yo qolgandek tildan
Oyim «Oh» dedi birdan
Yo telefon buzildi,
Yo simlari uzildi.

MEN TOPGAN SHIRIN YEMAK

Dadam keltirdi gilos,
Uni tushirdim paqqos.
Dadam qovog'in uyar
Va tanbeh berib qo'yar.
Totli narsani har gal,
Onangga ilin avval.
O'zim-o'zimga yoqmay
Turibman tikka boqmay.
Ochofatlik yomon ish
Zarur uni tuzatish
Shirin narsa nima bor?
Yo muzqaymoq yoki bol?
Muzqaymoqqa yo'qdir pul,
Bol qolmabdi, qurmagur,

Ko'chaga chiqib darhol
Do'stinga berdim savol.
Nima eng shirin narsa
U der: «O'ylab qaralsa
Cho'g'da pishgan kartoshka
Qiynalmaysan artishga.
Ta'mi shunaqangi zo'r
Ishonmasang tatib ko'r».
Keltirib shabba-o'tin,
Chiqarib ancha tutun,
O'sha o'tinni yoqib,
So'laklarimiz oqib,
Uydan olib kartoshka
Bizlar kirishdik ishga.

Va nihoyat o'chdi cho'g'
Kartoshkalar qani? Yo'q!
Aylangan qora toshga
Bari, bittadan boshqa.
Yolg'iz bitta kartoshka
Do'stim va men tortishgan.
O'rtog'im dedi: «Mayli
Olgin oying tufayli.
Faqat berasan qarmoq,
Yana fonar va chiroq.
Qara qanday ta'mi zo'r,
Ishonmasang tatib ko'r».
«Mayli!», deb so'lak yutib
Chopdim qo'limga tutib

Darrov kirib xonamga
«Oling!» dedim onamga
Oyim turmas yutoqib,
Oyim ketar tutoqib.
Der: «O'zingga bir qara
Hamma yog'ing qop-qora.
Qozon ossam, artishga
Yo'q bir dona kartoshka
Tezroq cho'mil, yuvgin bet,
Kartoshkangni olib ket!»
Turibman bo'lib hayron
Yaxshimanmi yo yomon?
Qo'limda esa ilhaq
Men topgan shirin yemak.

Kavsar TURDIYEVA.



GULLARIM

Turfa gullarim mening,
Bahorda yuz ochasiz.

Nargiza MA'MUROVA,

Shayxontohur tumanidagi

320 - maktabning 6 - sinf o'quvchisi



VATAN

Tinchlik bo'lsin Vatanda,
Qushlar uchsini osmonda.
Shunda hamma shod bo'lar,
Xurram bo'lar olamda.

OSMONDAGI YULDUZLAR

Osmondagi yulduzlar,
Yalt-yult etadi.
Hayollarim ummoni,
Olislarga ketadi.

Aziza MAVLONXO'JAYEVA,

Toshkent shahar,

Yunus-Obod tumanidagi 70- maktabning

4- «V» sinf o'quvchisi.

Qadim zamonda afsonaviy
Xumo qushi bo'lgan ekan.
U insonlarga yaxshilik,
ezgulik ulashar ekan. Xumo
qushi juda ko'p o'lkalarda
bo'libdi. Xushmanzara
bog'lar, baland tog'lar,
daryo-yu ko'llar, ko'm-ko'k
dalalar uzra sayr qilibdi...

Bir kuni ko'kda uchib
ketayotib, juda ko'rkam
manzaraga ko'zi tushibdi:
Qanotlarini keng
yoyib oxista
pastlabdi-da,
yerga
qo'nibdi.
Atrof gulzor,
chamanzor, bir
tomoni bog'-
bo'ston, ikkinchi
tomoni oppoq
paxtazor ekan.
Ariqlarda zilol

suvlar shildirab oqar,
bulbullarning xonishi dillarni
xushnud etarkan. Odamlari
shod-xurram, bolalari
baxtiyor ekanlar.

Xumo qushi bu manzarani
ko'rib quvonganidan sayrab
yuboribdi. Uning yoqimli
ovoziga maxliyo bo'lib,
atrofini odamlar o'rab
olishibdi.

- Voy, buncha go'zal,
ovozi yoqimli qush ekan. Biz

bunday qushni sira
ko'rmagandik,-deyishibdi
ular. Shunda Xumo qush:

- Assalomu alaykum, aziz
odamlar. Men Xumo
qushiman. Bu ajib o'lkaga
kelganimdan, sizlar bilan
t a n i s h g a n i m d a n
baxtiyorman,-debdi.

- Xumo qushi, sen
bizning o'lkamizda qol!
Bizning o'lkamiz endi ozod
b o' l d i .

Istiqlol
bizga
baxt-

saodat ato
etdi. Sen
h a m

yurtimiz
uzra bexavotir
parvoz qilishing

m u m k i n , -
deyishibdi. Bu iliq


gaplardan qushning boshi
ko'klarga yetibdi va

O'zbekiston deb atalmish
shu ajib o'lkada qolishga
qaror qilibdi. Yurt uzra

parvoz aylab, baxt va
shodlik keltiribdi. Shuning
uchun ham xalqimiz uning
suratini Davlat ramzlariga
tushiribdilar.

*Malika
RAHMONBEKOVA.*

XUMO QUSHI



BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

ENIGA:

1. Respublikamizning tog'li tumanlarida uchraydigan yovvoyi qo'yning nomi. 2. Poytaxtimizdagi sport kompleksi. 4. Sudda aybdorni oqlovchi shaxs. 7. Og'iz bo'shlig'ida tishlar, til va ... bor. 11. Ikkinchi uyimiz. 12. Kimyoviy element. 14. Kapalak turi. 15. Ul zot bizning qiblagohimiz. 16. Nemis fizik olimi, fizik qonun asoschisi. 18. ... - kitob (iqtisodga doir ibora). 21. Ilonning yog'ini yalagan. 24. Gul ...siz bo'lmaydi. 25. Urf. 26. Payg'ambarlardan biri. 27. Malham, yordam.

BO'YIGA:

1. Kaptar turi. 3. Benuqson, tekis. 5. Eng sirdosh do'st. 6. Sochi yo'q. 8. Muqaddas san'at dargohi. 9. Duradgorlik asbobi. 10. Or, nomus. 13. Haq Taolo. 17. Atir, upa sotuvchi kishi. 19. Zukko, dono. 20. Hunar. 22. Multfilm qahramoni. 23. Angliyadagi shahar.

Nigora ESHIMOVA,

Toshkent shahar,

Sobir Rahimov tumanidagi

29- maktabning

7- sinf o'quvchisi.



«Tong yulduzi» gazetasi jamoasi Respublika «Turon» yoshlar teatri badiiy rahbari Ravshan Yoriyevga va shu teatr aktrissasi, «Nodirabegim» mukofoti sovrindori Muxtabar Yoriyevaga o'g'li Jasur Yoriyevni bevaqt vafot etganligi munosabati bilan chuqur ta'ziya izhor etadi.

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MATBUOT QO'MITASI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI, «KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYIY HARAKATI, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» XAYRIYA JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa MUSURMONOVA,
Qahramon QURONBOYEV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Po'lat MO'MIN,
Mukarrama MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi» nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi» nashriyot uyi kompyuter bo'limida terib sahifalandi. Hajmi A-3, 2 bosma taboq.

«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida 46.291 nusxada ofset usulida bosildi. Korxonalar manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41. Buyurtma № T-560
Gazetani Muhabbat MAHSUDOVA sahifaladi.
Navbatchi: Ozoda TURSUNBOYEVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi № 000137
Manzilimiz: 700129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-62-34.
144-63-08